
Oltin devor (komediya)

Erkin Vohidov

(Uch pardali komediya)

TANISHTIRUV

Sahnaga chiroyli kiyingan kelishgan bir yigit chiqadi. U Qilichbek.

Qilichbek — Assalomu alaykum. Bugungi davrani olib borish menga topshirilgan. Kechamiz hali uzok. Davrada hammaga navbat tegadi. Xonandalarimiz sozni sozlaguncha men sizlarga bir hikoya aytib bermoqchiman.

(Muzika)

Bu voqea yaqin kunlarda Taqa mahallasida bo‘lgan. Usha odamlar hozir ham bor. Mana ular: Mo‘min! (Qorovul hush-tagi ovozi keladi va miltiq osgan, fonus ko‘targan Mo‘min kiradi.) Yoshi oltmishlarda bo‘lsa kerak. Eski shahardagi do‘konga qorovul.

Mo‘min — Kim u bemahalda yurgan? (Qilichbekka) E-ha, sizmidingiz! Assalomu alaykum. Qani, yuring, choy qilib beraman, qovun so‘yaman... (Hushtagini chalib chiqib ketadi.)

Qilichbek — Abdusalom. Uning qirq yillik kadrdoni. O‘zi yamoqchi. Mo‘minning aytishicha, undan besh yosh kichik, o‘zining aytishicha, yetti yosh katta.

Abdusalom — (Qilichbekka) Akasi jonidan, mening gapimga ishonavering. U bekor aytibdi.

Qilichbek — Boshim kal, ko‘nglim nozik, degan gap, asli, shu kishi to‘g‘risida aytilgan. (Abdusalom chiqadi. Xurinisa kiradi.) Xurinisa. Mo‘minning xotini. Uni bekitiqcha kinnachilik qiladi, deganlar bekor aytibdi. Bu bir-ikkita ko‘rolmaganlar tarkatgan gap.

Xurinisa — A? Nima? Ha, mayli, mayli. (Chiqadi. Diloromning «Nodir» deb chaqirgan ovozi keladi, so‘ng o‘zi kiradi.)

Qilichbek — Dilorom. Abdusalomning qizi. O‘tmish-da bir shoir aytganday: chiqdi gulgun kiyibon, bo‘ldi kiyomat, hay-hay! Ana husnu ana qaddu ana komat, hay-hay!

Dilorom — Nodir, bu yoqqa! (Chiqadi. Nodir kiradi.)

Qilichbek — Nodir. Mo‘minning o‘g‘li. Usha qaddu qomat ishqida shoirlik dardiga giriftor bo‘lgan bir bechora.

Nodir — «U bir Dilorom!» (Chiqadi. Zuhra kira-di.)

Qilichbek — Zuhra. Mo‘minning kizi. Bu shayton kizda juda gap ko‘p. (Zuhra qah-qah